

BADIIY MATN LINGVOPOETIK TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI VA METODOLOGIYASI TARIXIY ASPEKTDA: XORIJIY VA MILLIY TAJRIBA

*A. Abdullayev*¹

Annotatsiya:

Lingvopoetik tahlilning maqsadi u yoki bu lisoniy birlik (soʻz, soʻz birikmasi, grammatik shakl, sintaktik konstruksiya) muallif tomonidan soʻz sanʼati jarayoniga jalb etiladi, u yoki bu til birliklarining oʻziga xos, betakror birikishi muayyan estetik samaradorlikka olib keladi.

Kalit soʻzlar: badiiy matn, lingvopoetik tahlil, metodologiya, xorijiy va milliy tajriba.

doi: <https://doi.org/10.2024/t6tv7h42>

Maʼlumki, har qanday matnga nisbatan, lingvostilistik tahlil ikki sathni qamraydi: semantik va metasemiotik. Semantik sathda lisoniy-til birliklari (soʻz, soʻz birikmasi, sintaktik konstruksiyalar) qanday qoʻllanilsa shu tarzda, toʻgʻri, oʻz maʼnosida talqin etiladi. Metasemiotik sathda esa, til birliklari toʻgʻri maʼnodan ularning matndagi vazifasidan kelib chiqadigan maʼnosiga oʻtiladi va matn tarkibidagi maʼnosi oʻrganiladi. Soʻz, soʻz birikmasi, sintaktik konstruksiyalar qoʻshimcha maʼnolari nuqtai nazaridan, ularning kontekstda hosil qiladigan konnotatsiyalari inobatga olingan holda tahlil etiladi. Biroq, universal xisoblangan lingvostilistik tahlil, tadqiqotchidan muallifning badiiy gʻoyasini oʻrganishi, uning dunyoqarashi hamda estetik pozitsiyasi, badiiy tafakkur usullari, madaniy-filologik anʼanalarga munosabati bilan tanish boʻlishi taqozo etiladigan, badiiy matnlarning oʻziga xosliklarini inobatga olmaydi.

Badiiy adabiyot namunasini oʻrganishda mazmuni tushunish etarli emas, uning lisoniy-nutqiy tuzilmasi va badiiy-kompozitsion shakllanishining oʻzaro murakkab aloqadorligini ham oʻrganmoq joyiz, buning uchun esa til va poetika aloqasi inobatga olinishi shart. SHunday qilib, tadqiqotchi butunlay blosqqa sathga koʻtarilishi, asar doirasida lisoniy birliklarning metasemiotik xossalardan foydalanilish usullarini, ularning muallif maqsadini va asarning gʻoyaviy mazmunini aks ettirishini tadqiq etilishini yorituvchi lingvopoetik tahlildan foydalanishi kerak.

Lingvopoetik tahlilning zamonaviy, hozirgi xolati asosida, V.YA.Zadornova ishlab chiqqan kategoriyalar va oʻlchamlar tizimi yotadi. V.YA.Zadornov konsepsiyasiga batafsil toʻxtalishdan avval, jahon falsafasi, madaniyati va filologiya fanida bu tahlilning evalyusion tadriji tarixiga batafsil nazar tashlash maqsadga muvofiq boʻladi.

Lingvopoetik tahlil nazariyasi rivoji oʻzida bir nechta muhim, hal qiluvchi jihatlarni qamrab, uning taraqqiyotini asosiy prinsiplarini belgilab beradi. Lingvopoetik tahlil nazariyasi tarixiga hos koʻp asrlik oʻzgarishlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

Ilk bosqichlar: Qadimgi YUnon ritorikasi. Antik davrlardayoq poetik til tuzilishini tahlil qilishga urinishlar kuzatiladi. Aristotelning mashhur “Poetika” asarida ritorika-notiqlik sanʼatining muhimligi va sheʼriyat-poeziya (u paytlar poeziya-keng maʼnodagi adabiy asar sifatida tushunilgan) tuzilishining ahamiyati toʻgʻrisida fikr yuritiladi. Oʻz

¹ *Abdullayev Asqar Abduhakimovich, SamDCHTI oʻqituvchisi*

asarida tragediya va epiosni til nuqtai nazaridan tahlil qilishga uringan Aristotel tragediyani tomashabinda san'atning "poklash" - "καθαρσις"- "katarsis" effektini hosil qilishga mo'ljallangan shakli sifatida belgilaydi. Uning fikricha, tragediya shunday belgilarga ega bo'ladi: syujet (Μύθος), xarakterlar (ἦθος), nutq (λέξις), tafakkur, fiklash (διάνοια), navo, kuy (μέλος) va dekoratsii (ᾠψις). SHuningdek, Aristotel tragediyaning tuzilishini oid unsurlarni ham sanab o'tadi, jumladan, kirish - muqqaddima (πρόλογος), rivojlanish (ἐπεκτεταμένη), syujet rivoji (κενδρίνος), peripetiyalar (περιπέτειαι), aniqlanish (κενδρίνος) va yakun (κατάστασις). Aristotel shuningdek, eposni muhokama qilib, uni she'riy mimezis (taqlid), ammo bir nechta xarakterlar ishtirokida va bir qancha voqelar vositasidagi asar sifatida talqin qiladi. Aristoteldan so'ng, Platon, Demokrit kabi qadimgi dunyo olimlari ham o'z asarlarida adabiy shakllar tuzilishi va vazifalarini tahlil etish uchun asos yaratishib, adabiyot nazariyasi fani rivojiga o'zlarining muhim hissalarini qo'shib ketishgan.

O'rta asrlarda barcha fanlar sohasida sxolastika alohida o'rin egallab, katta ahamiyat kasb etgan. Sxolastika - falsafiy oqim bo'lib, uning maqsadi nasroniylik teologiyasini asritotelcha falsafa bilan uyg'unlashtirishdan iborat edi. Tafakkur to'g'risidagi sxolastlarning qarashlarida tafakkur tili konsepsiyasi muhim o'rin egallaydi. Uning nazariy manbasi bo'lib Aristotelning tovushli yoki yozma ifodalanishidan qat'iy nazar, ruh-qalb to'g'risidagi ta'limoti hamda Platonning bilim eslash, xotirlash ekanligi to'g'risidagi nazariyasi xizmat qiladi. Bu olimlar uchun ichki, ruhiy, qalban tasavvur - insonga begona bo'lgan talqi olam hamda uning aqli, alohida ideal, asosida insonning butun tafakkur yuritish korpusli jamlanadigan "materiya" bilan bog'lovchi zanjir xalqasi vazifasini o'taydi. O'rta asrlarga xos talqinda taqakkurga xos lisoniy nutq (so'zlar) teologik va ramziy-simvolik talqinga ega bo'ladi.

Anselm Kenterberiyский va Tomas Akvinskiy kabi sxolastiklar tilning tabiati, uning ijtimoiy turmush va badiiy san'atdagi roli to'g'risida mulohazalar bildirishgan.

O'rta asrlar adabiyoti ko'pincha allegoriyalar va sivol-ramzlar qo'llanilgan. Masalan, Aligeri Dantening "Ilohiy komediya"si kabi asarlar ramziy obrazlarga to'lib toshgan bo'lib, ular matnda metafizik va diniy mazmun kasb etishadi. Bu davrda tilga, lingvistikaga dahldor tadqiqotlar sirasiga ayrim mistika vakillarini ishlarini ham ko'rsatish mumkin. Masalan, Meyster Ekxart va Jan Ruis bevosita ilohiy tuyg'ular, kechinmalarni his etishni ustun bilishib, tilni esa o'zlarining ichki tajribalarini ifodalashga xizmat qiladi, deb xisoblashgan. Tilning ramziy va mistik tabiatli haknligi to'g'risidagi bu qarashlar O'rta asrlarda madaniy va intellektual muhitga ta'sir ko'rsatib, o'z davri adabiyoti shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Romantizm badiiy adabiyotga, G'arb tilida aytganimizda, poeziyaga, yangicha nazarni olib keldi, bunda individuallik va emotsionallik alohida ta'kidlanadi. Fridrix SHlegel nisbiylik g'oyasi va san'atni uyg'un jarayon ekanligi haqidagi qarashlarni rivojlantirdi.

Badiiy priyom lingvopoetikasi u yoki bu badiiy priyom-usulning matndagi - asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini uzatishidagi hamda estetik samaradorlikka erishishidagi rolini aniqlash imkonini beradi. Bu metod yordamida amalga oshirilgan tahlil davomida, tadqiqotchi butun matn darajasiga ko'tarilmaydi, chunki bir yoki bir nechta matn misolida badiiy priyomlardan bittaginasini vazifa bajarishini, uning lingvopoetik roli va ahamiyatini, o'rganadi. SHu tarzda, tadqiqot davomida olingan natijalar, cheklangan tabiatga ega bo'ladi. Bun jihatiga qaramasdan, mazkur metod bir qancha hollarda, shubhasiz, badiiy matnning alohida olingan aspektlarini o'rganishda ish berishi mumkin. Badiiy priyom lingvopoetikasi, xuddi uch chathli tahlil kabi, o'rganilayotgan matn qissaxonlik turini, tabiatini o'rganishni maqsad qilib olmaydi. SHunday bo'lsa-da, "Lingvopoetik tadqiqot metodlari" asarida, U.SHekspir pesalarida qo'llanilgan atributiv so'z birikmalarining lingvopoetik tavsifini o'rgangan A.A.Lipgart kitobxon e'tiborini umumiy qissaxonlik kontekstiga qaratadi.

Badiiy matnlarni lingvopoetik tadqiq etishning uchinchi metodi – lingvopoetik qiyoslash – bir-biriga hamda xatto originali va “ikkilamchi” matnlarga (tarjimalari, adaptatsiyalari va parodiyalariga) bog‘liq, tobe bo‘lmagan matnlarni lingvopoetik tavsiflarini qiyosiy o‘rganishga mo‘ljallangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. Морозов А.И. Выразительные возможности рекламного текста (на материале американской рекламы). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. М., 2001.

[2]. Козеняшева Л.М. Лингвопоэтические средства создания образа слуги в английской литературе XIX–XX веков. Дисс. ... канд. филол. наук. Самара, 2006.

[3]. Ешмамбетова З.Б. Соотношение авторской речи и речи персонажа как лингвопоэтическая проблема (на материале английского языка). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. М., 1984.

[4]. Асанов В.Д. Лингвопоэтическая функция смены стиха и прозы в творчестве СХекспира. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. М., 1988.

[5]. Жунисбаева А.К. Лингвопоэтическая характеристика образа литературного персонажа. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. М., 1984.

[6]. Сомова Е.В. Лингвопоэтические средства выражения авторского отношения к персонажу. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. М., 1989.

[7]. Борисова Е.Б. Перевод как словеснохудожественное творчество и как результат научно-филологического анализа текста. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. М., 1989.